

# **Universitetga biriktirilgan yoshlar bilan uchrashuv bo'lib o'tdi**

Toshkent shahridagi Turin politexnika universitetida, universitetga biriktirilgan Bektemir tumani "Iyk ota" va "Soxil" mahalla yoshlari bilan uchrashuv bo'lib o'tdi.

Uchrashuvda universitet rektori Olimjon To'ychiyev yoshlar bilan tanishib, ularning birinchi navbatda bandligini ta'minlash, hayotda o'z o'rnini topishi va bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish bo'yicha suhbat o'tkazildi.

Uchrashuv so'ngida yoshlarga universitet rahbariyati tomonidan o'quv kurslari uchun 1000 000 so'mlik vaucher hamda esdalik sovg'alari topshirildi. Shuningdek, yoshlarga universitet bo'ylab sayohat uyushtirilib, talabalar loyihalari bilan tanishtirildi.

Aytish kerakki, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar "Inson qadri uchun" tamoyiliga asoslangani bilan ahamiyatlidir. Buni bugungi amaliy say'-harakatlar misolida ham ko'rish mumkin.







